

**QORAQALPOQ XALQ MAQOLLARIDA MADANIY ONG, IJTIMOYIY TAFAKKUR
VA TARBIYAVIY QADRIYATLARNING AKS ETISHI****Saylaubaeva Bibigul Jen'isbay qizi**

ToshDO'TAU 3-kurs talabasi

bibigulsaylaubaeva@gmail.com

+998943285057

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15754452>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq og'zaki ijodining qadimiy va barqaror janrlaridan biri - maqollar xalq tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy-me'yoriy qarashlar va milliy ongning shakllanishidagi o'rni nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Maqollar xalq madaniyatining mazmuniy ifodasi bo'lib, unda tarixiy tajriba, mehnat etikasiga munosabat, axloqiy ideal va hayot falsafasi mujassam. Maqolada ushbu janrning tarixiy ildizlari, arab tilidan kirib kelgan atamalar asosida shakllanishi, hamda timsollilik, ko'chma ma'no, aforizmlilik kabi stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Qoraqalpoq maqollari misolida mehnat, halollik, sabr-toqat, harakat, mas'uliyat kabi ijtimoiy-tarbiyaviy tushunchalarning qanday ifodalangani ko'rsatilib, ularning yosh avlodni ijtimoiy ongli shaxs sifatida shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, maqollarni semantik guruhlariga ajratish orqali xalq tafakkurining tizimli anglanishiga yo'l ochuvchi metodologik asoslar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq folklori, maqollar, xalq og'zaki ijodi, milliy tafakkur, madaniy meros, timsollilik, axloqiy qadriyatlar, mehnat etikasi, arabcha atamalar, semantik tahlil, tarbiyaviy funksiyalar, ijtimoiy ong.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi – boy tarixiy, falsafiy va axloqiy tajribaning mujassamidir. Ayniqsa, maqollar xalq tafakkuri, madaniyati, urf-odatlar va axloqiy qarashlarini yuksak darajada aks ettiradi. Maqollarni o'rganishda ularning semantik guruhlariga ajratish xalq tafakkurini tizimli anglashga imkon beradi. Qoraqalpoq xalq naql-maqollarining xizmat qiladigan vazifasi ham, boshqa xalqlarning naql- maqollari kabi inson bilan inson orasidagi munosabatlarni ko'rsatadi. Shuning bilan birga jamiyat va tabiat hodisalari bilan urf-odat va qadriyatlar, ta'lim tarbiya, jamiyatlik moral, xulq-atvorning normalarini bir so'z bilan aytganda, xalq turmushining oynasi, insoniychilik qoidalarining zanjiri sifatida rivojlangan. Naql-maqollarda aytilmaydigan so'z, ochilmaydigan sir yo'q, deyarli. Turmushda bor bo'lgan voqealarning hammasiga o'ziga xos bo'yoqdorligi, o'rni va bahosi beriladi.¹

Og'zaki xalq ijodining boshqa turlari kabi naql-maqollarning kelib chiqishi har xil tarixiy voqealarning belgisi, geografik atamalar, xalqning kundalik turmushi, kasb-hunarlarining mahorati beriladi. Jamiyatning tafakkur mahsuli hisoblangan naql-maqollarning deyarli ko'pchiligi turmushga xalqning ko'z-qarashi va xalq massasining ideallarini ko'rsatadi. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodining tabiiy mahsuloti sifatida xalq orasida keng tarqalib, hayotga to'g'ri munosabatni shakllantiruvchi naql-maqollarning orasida, "Jegen awiz uyalar", "Jaqsi para beredi, jaman bara beredi", "Qiz tan'risi mal" kabi revolyutsiyadan oldingi elni boshqaruvchi hokimiyatning maqsad va muddoalarini ko'rastuvchi naql- maqollar ham uchray turadi.²

Naql-maqol termini qoraqalpoqlar orasida juda erta vaqtlardan boshlab tarqalgan. Chunki bu termin xalq orasida tarqalib, shu janrning atamasi bo'lib shakllanishi haqida fikr bildiruvchi

¹ Qoraqalpoq folklori. Nukus, 1978. 4-tom, 8-bet

² Qoraqalpoq folklori. Nukus, 1978. 4-tom, 9-bet

olimlarning ko'pchiligi, arablarning O'rta Osiyo va Qozog'iston dalalariga kelishi bilan, shu territoriyalarda yashovchi turkiy tillar xalqiga arab tilining ta'siri bo'lgan deb tasdiqlashadi.

“Maqal” so'zi qoraqalpoq tiliga arablardan kirgan. Bu so'zning ma'nosi “o'rinli so'z” ya'ni “tegishli joylarda aytiladigan so'z”. Arablar ham “Likelli makanin makal” o'ringa mos makali bor deydi.³

Ba'zi olimlar shuning dalili sifatida erta davrlardagi adabiy meroslarni ko'rsatishadi. 11-asrning mashhur namunalaridan biri hisoblangan “Devoni lug'atit turk” kitobida juda ko'p maqollar berilganini ko'rsatish bilan bir qatorda To'nyuquqning nomiga bitilgan bitikdoshda chiroyli va ko'rkam epitelar, metaforalar, naql-maqollar, aforizmlar ko'p keltirilgan.⁴

Bu janr hamma xalqlarda mavjud. Lekin har bir xalqda har xil terminlar bilan beriladi. Shularning ichida turkiy tillar xalqlarining ko'pchiligida ayrim fonetik o'zgarishlarini hisobga olmaganda, deyarli bir-biriga juda yaqin keladi. O'zbeklar “maqol”, turkmanlar “naqil ve atalar so'zi” qirg'izlar “naqal-laqaplar”, qozoqlar “maqal-matel” deydi.

Qoraqalpoqlarda bu terminning “hikmetli so'z”, “misal so'z”, “na'siyat so'z” kabi variantlari ham bor. Qaysi xalq qanday qilib ataganidan qat'iy nazar ularning ma'nosi bir xildir. Xalqimiz ota-bobolarimizdan qolgan har bir so'z asl gavhar va donolikning chashmasi deb hurmat qilishadi. Ko'pchilik xalqlar “Otalar so'zi – aqlning ko'zi” deb ham atashadi. Bu bir tarafdin naql-maqollarning yana bir atamasi bo'lsa, ikkinchi tarafdin bu xalqning bergan bahosi bo'lib hisoblanadi. “Agar dunyodagi barcha xalqlarning naql-maqollarini hamda donishmand ota-bobolarimizning hikmatli so'zlarini yig'animizda katta bir kitob bo'lgan bo'lar edi”.⁵

Qoraqalpoq xalq maqollari o'zaro mazmun, ayniqsa shu mazmunining o'zgachaligini paydo qiladigan tuzilish tarkibiga ko'ra farqi bilanadi. Naqlarning tuzilishidagi so'zlar aniq ma'noni bildiradi. Shuning uchun ham undagi so'zlar tinglovchiga aql berish va pand-nasihat kabi eshitilib, hech qanday tushuntirishni talab qilmaydi. Lekin maqolning tuzilishiga kirgan so'zlarda ko'chma va tag ma'nolar uchraydi. Shuning uchun ham undagi so'zlarning ma'nosi har qanday holatga tegishli bo'lgan ma'nosini anglab, qo'llashga va tushunsa bo'ladi. Undagi imo-ishora va timsollab so'zlash ko'proq bo'ladi. Masalan, “Qizim sag'an aytaman kelinim sen tin'la” kabi maqollar mulohaza va fiklash orqali amalda qo'llaniladi.⁶

Maqollarga xos yana bir xususiyat shundaki, ular to'g'ri gapni faqat timsol gapga almashtiradi. Ba'zi bir holatlarda narsaning nomini atamaydi. Lekin shartli turda boshqa narsa orqali yetqizadi. Umuman olganda, bularning bittasi turmushni aniq va tog'ridan to'g'ri ko'rsatsa, ikkinchisi ko'chma ma'noda tasvirlaydi. Qoraqalpoq xalqining jonli tilida ayrim naql-maqollarning bir-biriga juda yaqin kelish xususiyatini ko'rsatib, rus tadqiqotchisi Snegirov “Ba'zi bir maqollar naqldan, ba'zi bir naqlar esa maqollardan kelib chiqadi”⁷ degan edi. Misol uchun, “Baqirawiq tu'yenin' ba'ri jaqsi, baqirip turg'ani onnan da jaqsi”, “Qazanshinin' erki bar, qaydan qulaq shig'arsa”, “Qiy mildag'an qir asar, bu'lkildegan jer teser”, “Tapqan birewin soyadi, tappag'an ekewin soyadi”.

Maqollarni ma'noviy guruhlash zarurati shundaki, ular orqali xalq ongidagi muhim qadriyatlarni aniqlash, tarbiyaviy va didaktik maqsadlarda qo'llashni osonlashtirish, ularning stilistik va semantik xususiyatlarini tadqiq qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qoraqalpoq folklorining mehnat haqida aytilgan naql-maqollaridan ayrimlarini ko'rib

³ N.Isanbet. Xalq maqallari. 1-tom, Kazan-1959.9-bet

⁴ Ertedegi a'debiyet nusqalari, Alma-Ata-1957, 13-bet

⁵ M.Alimbaev.O'rnekti so'z ortaq qazina. Alma-Ata, 1967,13-bet

⁶ Qoraqalpoq folklori. Nukus, 1978. 4-tom, 12-bet

⁷ И. Снегиров. Русские народные пословицы и притчи, М. 1948, стр.19

chiqamiz va tahlilga tortamiz. Qoraqalpoq xalqi mehnatga yuksak baho bergan va bu hayot falsafasini maqollarda ifodalagan:

Jalqaw o'z u'yine o'zi qonaq.

O'zbekcha ma'nosi:

Yalqov o'zi uyiga o'zi mehmon.

Bu maqolda yalqov va erinchoq odam o'z uyida bo'la turib ham mehnat harakat qilmasa, uning o'z uyidagi mehmondan farqi qolmaydi. Chunki azal-azaladan xaqimizda "Mehmon otangday aziz" degan gap bekorga aytilmagan va mehmonga ish buyurish qoralangan. Shuningdek, bu maqolda mehnat qilishga, erinchoqlik qilmaslikka da'vat etyapti.

Bundan tashqari qoraqalpoq xalqida to'rtlik shaklidagi maqollar ham uchrab turadi:

Aqilinin' kemligin,

Ku'lki menen jetkerer.

Irisqalinin' kemligin,

Uyqi menen jetkerer.⁸

O'zbekcha ma'nosi:

Aqlining kamligini,

Kulgu bilan yetqizar.

Rizqisining kamligini,

Uyqu bilan yetqizar.

Ushbu maqolda insonning aqli kamligini uning ko'p kulishi yoki qanday kulishidan, rizqu nasibasining kamligini esa ko'p uxlashidan bilib olishimiz mumkinligini bizga aytyapti.

Jolawshinin' parizi,

Ju'rse o'teler.

Sawdagerdin' qarizi,

Berse o'teler.⁹

O'zbekcha ma'nosi:

Yo'lovchining farzi,

Yursa bajarilar.

Savdogorning qarzi,

Bersa bajarilar.

Bu maqoldagi "Jolawshinin' parizi- ju'rse o'teler" jumlasida yo'lovchi obrazida hayot yo'lidagi odam nazarda tutilmoqda. Ma'nosi shuki, biron-bir maqsadga yetish uchun odam harakat qilishi kerak. Ya'ni, yo'lga chiqqan kishi faqat yurish orqali manzilga yetadi. Agar u to'xtab qolsa, hech qachon maqsadiga erisha olmaydi. Bu umumlashgan holda inson harakati, intilishi, mehnati haqida aytilgan ya'ni "Agar sen orzu qilayotgan narsang bor bo'lsa, unga intilmasang, hech narsa o'z-o'zidan bo'lmaydi. Harakat qilganlargina muvaffaqiyatga yetadi". "Savdogarning qarzi – bersa bajarilar" bu qismida esa savdogar obrazida insonning ijtimoiy hayotdagi majburiyatlari, halollik va adolat prinsiplariga rioya qilishi aks ettiriladi. Savdogarning qarzi – ya'ni, u kimdandir qarz olsa yoki biror va'da bersa, uni bajarsa, o'z burchini ado etgan bo'ladi. Bu jumla so'zda turish, halol bo'lish, jamiyat oldida o'z mas'uliyatini unutmaslik g'oyasini targ'ib qiladi. Bu maqol yoshlarni harakatchan, intiluvchan, mas'uliyatli, halol va vijdonli bo'lishga da'vat etadi. U kishilarga eslatadi: har bir insonning bu dunyoda o'ziga xos

⁸ Qoraqalpoq folklori. Nukus, 1978. 4-tom, 23-bet

⁹ Qoraqalpoq folklori. Nukus, 1978. 4-tom, 26-bet

burchi bor, shu burchini ado etganlargina chin inson bo'la oladi.

Uyqilamasan' ashilmaydi qabagin',
Miyne etpey ag'armaydi tamag'in'.¹⁰

O'zbekcha ma'nosi:

Uxlamasang – ochilmaydi qabog'ing,
Mehnat qilmay – oqarmaydi tamog'ing.

Bu maqolda ikki muhim hayotiy tamoyil ko'rsatilgan. Birinchi qismida tanani tiklash uchun dam olish kerakligi haqida aytilgan. Chunki inson faqat mehnat bilan emas, dam olish, uxlab tiklanish orqali ham salomatligini saqlaydi. Doimiy charchoq, uxlamaslik insonni ruhiy va jismoniy jihatdan zaiflashtiradi. Shuning uchun vaqtida uxlab, tanani tiklash kerak. Ikkinchi qismida esa mehnat – rizq va hurmatning asosi ekanligi ta'kidlangan. Halol mehnat qilgan odamgina hayotda oq yoqa kiyib yuradi, ya'ni izzat topadi, toza yashaydi. Dangasa, mehnat qilmaydigan odam na mol topadi, na hurmat. Bundan tashqari bu maqol insonning hayotiy muvozanatini targ'ib qiladi, ya'ni bir tomondan, dam olish – bu salomatlik, hushyorlik uchun zarurligi, ikkinchi tomondan esa mehnat – bu yashash, ovqat topish, hurmatga sazovor bo'lish vositasi ekanligi tasvirlangan. Ya'ni, hayotda nafaqat ishlash, balki o'z vaqtida dam olish ham muhim. Ikkalasi bir-birini to'ldiradi. Demak, sog'lom tana – halol mehnat orqali jamiyatda izzat topish, bu – qoraqalpoq xalqining qadimiy falsafasidir.

Ko'z jumbay suv keshiw joq.¹¹

O'zbekcha ma'nosi:

Ko'z yummay suv kechish yo'q.

Bu maqolda inson hayotidagi qiyinchiliklarga bardosh berish, ularni e'tiborsiz qoldirish emas, aksincha, sabr bilan yengib o'tish kerakligi ifodalangan. Bu maqolda suv – inson hayotida duch keladigan sinovlar, dardlar, muammolarning timsoli. Ularni ko'rib turib, unga ko'z yumib chidagan odamgina manzilga – maqsadga yetadi. Qiyinchiliklarni ko'rib, yurak bilan bardosh berib, sukut ila yo'lni davom ettirgan kishi maqsadiga yetadi. Bu maqolda sabr-toqat, irodalilik va bardoshlilik qadrlanmoqda. Har bir inson hayotida "suvdan kechish" holati bo'ladi – ya'ni sinovli davrlar. Ana shu paytda ko'z yummay, ya'ni ichki qarshiliklarsiz, shikoyatsiz sabr qilgan odamgina bu davrdan muvaffaqiyatli o'tadi. Umuman olganda "Ko'z yummay suv kechish yo'q" maqolida hayotda maqsadga yetish uchun inson og'irliklarga chidashi, sabr bilan, ba'zan sukutda bo'lib, bu sinovlarni yengib o'tishi kerak degan donishmandlikni tasvirlayapti.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalq maqollari — xalq tafakkuri va ijtimoiy ongining tarixiy-madaniy kontekstda shakllangan betakror ifodasidir. Ular ko'p asrlar davomida jamiyatning axloqiy, mehnatga oid, ma'naviy va tarbiyaviy qadriyatlarini avloddan-avlodga o'tkazuvchi vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Ushbu maqollar xalqning hayotiy tajribasi, ijtimoiy ideallar, madaniy orientirlar, shuningdek, mehnat va halollik mezonlariga bo'lgan munosabatining eng qisqa, ammo chuqur ma'no yuklangan ifodalaridir. Maqollarning ko'chma ma'nolarga boyligi, obrazlilik va timsollilik orqali insonning ichki dunyosi, ijtimoiy pozitsiyasi va ruhiy-etnik xususiyatlari yoritiladi. Ular nafaqat axborot beruvchi, balki tarbiyaviy, ogohlantiruvchi va yo'l ko'rsatkich funksiyasiga ega bo'lgan didaktik janr hisoblanadi. Ushbu maqolada keltirilgan misollar asosida ko'rinadiki, qoraqalpoq maqollari milliy mentalitet, madaniy xotira va xalq pedagogikasining muhim manbasi sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab

¹⁰ Qoraqalpoq folklori. Nukus, 1978. 4-tom, 28-bet

¹¹ Qoraqalpoq folklori. Nukus, 1978. 4-tom, 30-bet

etadi.

REFERENCES

1. Alimbaev M. O'rnekti so'z ortaq qazina.– Alma-Ata, 1967.
2. Ertedegi adabiyet nusqalari. – Alma-Ata, 1957.
3. Isanbet N. Xalq maqalleri. – Kazan, 1959.
4. Qoraqalpoq xalq naql-maqollari. – Nukus: Qoraqalpaqstan, 1995.
5. Q.Ayimbetov. Qoraqalpoq adabiyoti.– No'kis, 1959.
6. Qaraqalpaq folklori. 4-tom. – Nukus, 1978.
7. Qaraqalpaq folklori naql-maqallar. –Toshkent, 2019.
8. И. Снегиров. Русские народные пословицы и притчи. – М, 1948.